Negmatova Shaxzoda Shuxratovna (O‘zbekiston–Finlandiya Pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi professori; shnegmatova83gmail.com)

SAMARQANDDA JADIDCHILIK HARAKATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Turkistonda XIX asr oxiri–XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, o‘sha davrda Chor Rossiyasi tarkibiga kirgan O‘zbekiston hududi aholisi uchun milliy o‘zlikni anglash va milliy ozodlik mafkurasini shakllantirishga xizmat qilishi va jadidchilik ta’limoti yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyat, “Aynul adab”, “Mir’oti ibrat”, dehqonchilik, “yaxshi bir texnik”, “yaxshi to‘quvchi va tikuvchi”, “Anjumani arvoh”, “Mir’oti ibrat” so‘z erkinligi va xalq mustaqilligi.*

ОСОБЕННОСТИ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В САМАРКАНДЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются общественно-политические изменения, произошедшие в Туркестане в конце XIX — начале XX вв., как они способствовали формированию чувства национального самосознания и идеологии национального освобождения у населения территории Узбекистана, что была частью царской России того времени, анализируется доктрина джадидизма. Представлен анализ научных исследований, проведенных по данной теме.*

Ключевые слова: *движение джадидов, образовательная, общественно-политическая и культурная деятельность, «Айнул адаб», «Мироти ибрат», земледелие, «хороший техник», «хороший ткач и портной», «Призрак конференции». «Урок урока», свобода слова и независимость людей.*

SPECIFIC FEATURES OF THE JADIDIST MOVEMENT IN SAMARKAND

Annotation. *This article analyzes the socio-political changes that occurred in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, their contribution to the formation of the ideology of national identity and national liberation for the population of the territory of Uzbekistan, which was part of Tsarist Russia at that time, and the scientific research conducted on the doctrine of Jadidism.*

Keywords: *Jadidism movement, educational, socio-political and cultural activities, “Aynul adab”, “Mir’oti ibrat”, agriculture, “a good technician”, “a good weaver and tailor”, “The ghost of the assembly”, “Mir’oti ibrat” freedom of speech and national independence.*

Kirish (Introduction). Turkistonda XIX asr oxiri–XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar mahsuli o‘laroq, jadidchilik o‘sha davrda Chor Rossiyasi tarkibiga kirgan O‘zbekiston hududi aholisi uchun milliy o‘zlikni anglash va milliy ozodlik mafkurasini shakllantirishga xizmat qildi. “Turkiston jadidlarining asosiy g‘oyaviy va nazariy qarashlari ziyokor va modernistlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniylar tomonidan shakllantirildi. Ular ko‘p jihatdan sovet tizimini inkor qilib, Turkistonda xalq davlatining yaratilishini, u o‘z yo‘lidan rivojlanishini yoqlab chiqqan edi”.[1] Shu o‘rinda, jadidchilik harakatini XVIII asrda Yevropada paydo bo‘lgan ma’rifatparvarlik harakati yoki Misrda XIX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan “Nahda”, ya’ni Uyg‘onish davriga qiyoslash mumkin. Chunki ularning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar – ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar, mafkuraviy yuksalish, G‘arb va Sharq sivilizatsiyasi elementlarining sintez qilinishi, kuchli markazlashgan demokratik davlat qurishga intilish, ilg‘or ma’rifatli shaxslarning o‘z xalqini ma’naviy yangilashga intilishi va boshqalar ularning g‘oyalari tezroq yoyilishiga hissa qo‘shdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jadidchilik ta’limoti yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, sovet mustamlakachiligi davrida jadidchilik harakati hamda jadidlarning ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatini o‘rgangan tadqiqotchilar o‘z davri talablaridan kelib chiqib, ularni panturkist, panislomist deb atagan va bir yoqlama baho berganlari ko‘zga tashlanadi. Ular o‘z tadqiqot ishlarida arxiv hujjatlari, davriy matbuot va og‘zaki ma’lumotlardan keng foydalangan bo‘lib, o‘sha paytdagi mavjud shart-sharoitlar mohiyatidan kelib chiqib, o‘sha davrdagi ideologik yondashuvni to‘g‘ri yetkazishga harakat qilishgan deyish mumkin. Ayonki, ko‘pchilik sovet olimlari jadidchilik harakatini o‘rganar ekanlar, uni burjua-millatchilik, panislomiy va panturkistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi harakat sifatida talqin qilishgan. Darhaqiqat, jadidlar milliy qadriyatlarga, vatanparvarlikka juda katta o‘rin berishgan, sivilizatsiya yutuqlaridan hayotda foydalanishga chaqirishgan. Bu borada D.A. Alimova jadidlar hech qachon faqat milliy manfaatlar bilan chegaralanib qolmaganligini ta’kidlab, ularning

[1] Саламов Ш.Н. Ғоялар жанги. XIX–XX да Туркистон ва Жанубий Кавказ. Тошкент, “Истиқлол нури”, 2017, 72-bet (умумий 312 бет).

G‘arb sivilizatsiyasi yutuqlaridan foydalanishga chorlashganini izohlaydi.[1] 90-yillarga kelib, jadidlar tarixiga qaratilgan ilmiy ishlarda yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi, natijada tarixni xolisona o‘rgangan olimlarning asarlari dunyo yuzini ko‘rdi. Ushbu davrdagi ishlarda jadidchilik harakati ijtimoiy-tarixiy va madaniy merosni asrash va keyingi avlodlarga yetkazish missiyasini bajargan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Ta’kidlash joizki, F.Xodjayev, X.Vahidov va boshqalarning asarlarida ma’rifatparvarlar, jadid maktablari haqida muhim ma’lumotlar mavjud.[2] Turkiston tarixida yangi jadidchilik konsepsiyasining tashkil topish masalalari, nafaqat O‘zbekiston olimlari, balki I.Sharipov, Y.Abdullin, N.Xotamov, M.Bakiyev[3] va boshqa MDH olimlari tomonidn ham qalamga olingan bo‘lib, ularning ishlarida biz ijtimoiy-siyosiy muammolarga keng o‘rin berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Samarqandda jadidchilikning eng rivojlangan pragmatik yo‘nalishlaridan biri bu adabiyot bo‘lib, ular xalqni ma’rifatga yetaklovchi, inqilobiy kuchga ega g‘oyalarni yetkazuvchi vosita sifatida badiiy adabiyotni markaziy o‘ringa qo‘yishgan. Nafaqat Samarqand, balki O‘rta Osiyo jadidchiligining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalarining dunyoqarashi va adabiy ijodining asosiy xususiyatlardan biri shundaki, ular roman, qissa, novella, risola, erkin she’r kabi Yevropa adabiyotiga xos bo‘lgan, ilgari o‘zbek badiiy adabiyotida kuzatilmagan janr va shakllardan keng foydalanishgan. “Islohotlarning jo‘shqin tarafdorlari mashhur ma’rifatchi Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Berdaq, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O‘tar o‘z she’rlarida xalqni bilim va ma’rifatga chorlaganlar”.[4] Shuni alohida ta’kidlash joizki, jadidchi shoirlar Siddiqiy Ajziy, Toshxo‘ja Asiriy Xo‘jandiy, Tavallo va boshqalarning she’riy ijodida maorif va madaniyatni rivojlantirish masalalari, eng avvalo, jadid maktablari targ‘iboti o‘z aksini topgan. Xususan, T.Asiriy “Mudofaa” she’rida yangicha “usuli jadid” o‘qitish usuli eski sxolastik o‘qitish usulidan farqli o‘laroq, o‘quvchilarga haqiqiy bilim berishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shoirining bashorat qilishicha, yangi, asosli uslubga asoslangan jadid maktablarida berilayotgan ta’lim “muqaddas yo‘l”, ilm-fan va maorif “kalit”i, dunyoviy madaniyat sari yo‘l, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish vositasidir. Shuningdek, T.Asiriy “Timsol” nomli masnaviysida jadid maktablarini musulmon jamiyatidagi quvonchli hodisa deb atar ekan, ular odamlarni ongli, hayot uchun foydali bo‘lishga tarbiyalaydi, deb hisoblaydi.[5] Shunga o‘xshash g‘oyalarni Samarqand jadidlari ijodida ham kuzatish mumkin.

Shunday qilib, XX asr boshlarida jadid adabiyoti faol rivojlanib, O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotining keyingi rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Jadid adiblarining adabiy yangiliklari, mavzulari, janrlari, shakllari, uslubi va tili eski asarlarni siqib chiqara boshladi. O‘z she’rlari bilan xalqni ma’rifatga chaqirgan, tafakkur va taraqqiyotga targ‘ib etgan samarqandlik jadid Siddiqiy Ajziy ham o‘zining “Aynul adab”, “Mir’oti ibrat” kabi kitoblari orqali o‘zining zamondosh ijodkorlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ilhom bergan, shu bilan o‘zbek she’riyatida yangi bir bosqichni boshlab bergan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning ijodiga doir manbalar tahlili ko‘rsatadiki, shoirning asarlari, asosan, tojik tilida bitilgan bo‘lib, o‘zbekcha she’r va dostonlari ham mashhurdir. Z.Sh.Rajabov, I.S.Braginskiy, A.M.Bogoutdinovlarning tadqiqotlarida shoirning hayoti va ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchratish mumkin. Shoirning ijodiga alohida o‘rin bergan Vadud Mahmud uning “Samarqand tegrasida Halvoyi qishlog‘ida dehqonchilik bilan mashg‘ul”, shuningdek, “yaxshi bir texnik”, “yaxshi to‘quvchi va tikuvchi” ekanligiga to‘xtaladi.[6] Shoirning badiiy ijodi har qancha zamonaviy va yangiliklarga boy bo‘lmasin, ma’lum bir muddat senzuraga uchraganini ham rad etib bo‘lmaydi. “Anjumani arvoh”, “Mir’oti ibrat” kabi asarlarining Turkistonda emas, balki Tiflisda nashrdan chi-

---

[1]Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. Ташкент, “Ўзбекистон”, 2009, с. 17 (Umumiy 23 bet).

[2] Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. Ташкент, 1926, 78-bet; Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане. Ташкент, “Узбекистан”, 1979, 156 с.

[3] Шарипов И. Предпосылки преобразования общественных отношений в Таджикистане на пути некапиталистического развития. Ч.1, Душанбе, “Дониш”, 1973, с. 170; Абдуллин Я.Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция. Из истории татарской общественной мысли. Казань, 1979, с. 91–117; Он же. Буржуазно-демократическое движение рубежа XIX–XX веков и его идеологическое выражение – джадидизм. Общественная и философская мысль в Татарии начала XX века. М., “Наука”, 1990, с. 16–29; Хотамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деетельности. Душанбе, 2000, 58-бет; Бакиев М.И. История просветительного движения и свободомыслия в Средней Азии, конец XIX начало XX века. Дисс. док.ист. наук, Душанбе, 2000, 282 с.

[4]Алимов Д. Жадидчилик феномени. Тошкент, “Академнашр”, 2022, 8-bet (умумий 272 bet).

[5] Тошходжа Асирии Худжацдн. Апгьори мунтахаб (избранное). Мураттиб ва муаллифи сарсухану тавзехот Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, “Адиб”, 1987, с. 24.

[6] Маҳмуд В. Турк шоири Ажзий. “Инқилоб”, 1924, 12-сон.

qishining, shuningdek, ko‘pchilik she’rlari, xususan, Kavkazda “Dirilik”, “Mulla Nasriddin” jurnallarida bosilishining asosiy sababi ham shoirning tashqi dushmanlari soni ko‘payib borganligidir. Shunga qaramay, “Mir’oti ibrat”ning o‘zbek tilidagi varyantini Samarandda 1914-yilda bosmadan chiqqanligi, shoirning so‘z erkinligi va xalq mustaqilligi uchun kurashishdan to‘xtamaganligini ko‘rsatadi.

Shoirning dastlabki ijodiga oid g‘azal va masnaviylarida ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qilsada, 1920-yildan keyingi me’rosida ozodlik harakatiga undash, xalqni uyg‘otish masalalari birinchi o‘ringa chiqadi. Xususan, “Millatlar ligasi” she’riga e’tibor qaratigan bo‘lsak, xalqqa murojaat qilar ekan, jim o‘tirmaslikka, o‘z boshini tuzoqqa ildirmaslikka chorlaydi.

Shoirning “Aynul adab” kitobiga kiritilgan “Xudoyo” radifli g‘azali esa kinoyali ruhda yozilgan bo‘lib, unda jamiyatda bo‘layotgan hodisalarga shoirning keskin munosabati ko‘zga tashlanadi:

“G‘ayrat-la qamab maktabi savtiylari, hayhot,
Bu zumrayi nodonlaringa “shukr”, Xudoyo!
O‘z kayfina dunyoni tasallud edajaklar,
Qozilaringa, xonlaringa “shukr”, Xudoyo!..”[1]

Shoirning murojaatidan ko‘rinib turibdiki, yangicha usulda ochilgan maktablarning yopilishi, qozi va xonlarning o‘z mansab va lavozimlarini suiste’mol qilishini ochiqchasiga tanqid ostiga olgan. G‘azalning keyingi misralarida esa “Haq so‘ylagan insonlarning” takfir etilishi, doktorlarning o‘rniga xalqning “jindor-i parixon”larga ishonishi kabi millatning inqirozini ko‘rsatib beruvchi omillarni tanqid ostiga oladi.

Uning yana bir “Edub” radifli g‘azalida esa xalqni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, g‘aflatdan uyg‘onishga, islohotlarga ochiq bo‘lishga undash ruhi yetakchilik qiladi:

“G‘unchasini ochmish tamaddun javlon edub,
Olam ahlini sanoye gullari hayron edub.
Har taraf to uni g‘aflatdan esub bodi hamim,
Bu ham o‘z ta’siridin isloh evin vayron edub”.[2]

Shoir mazkur she’rida chiqayotgan yangi qonunlarning ta’limni nishon qilganligi, maktablarning yopilib ketayotganligini “jon berish”ga qiyoslar ekan, bundan fikr ahlining mas’ulligini, ya’ni, ilm ahli har dam, har soat, har lahza ta’lim uchun jon kuydirishi kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, shoir olamda hamma narsaning imkoni, iloji borligini, har zaif iymonni ham tiriltirish mumkinligini, taraqqiyot saro olg‘a borish lozimligini uqtiradi. “Navla rahm” she’rida esa alam bilan g‘arbda texnikaning shiddat bilan rivojlanib borayotganligini, “ko‘kda tayyoralara, suvdag‘i sayyoralara” boqish orqali Sharqni uyg‘onishga da’vat etadi, ilmning farzligi islomda qayd etilganligiga urg‘u berib, xalq boshiga kelgan barcha balolarga ham ilmsizlik sababchi ekanini ta’kidlaydi.

Samarqand jadidchiligidagi asosiy pragmatik yo‘nalishlaridan yana biri bu dramaturgiya bo‘lib, bu davrda milliy dramaturgiyaning paydo bo‘lishi va teatr san’atining rivojlanishi jadidlar faoliyatining ta’sirini kengaytirishga xizmat qildi. Ular teatrning ahamiyati va rolini yaxshi anglab, uni Turkiston o‘lkasi xalqlari o‘rtasida tamaddunga yetaklovchi g‘oyalarni targ‘ib qilishning asosiy vositasi deb bilganlar. Shu o‘rinda o‘zbek dramaturgiyasining tamal toshlarini qo‘yib bergan mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiyning butun O‘rta Osiyo milliy teatr san’atining shakllanishi va rivojlanishiga qo‘shgan hissasini rad etib bo‘lmaydi. M.Behbudiyning 1914–1917-yillar davomida O‘rta Osiyoda yozma milliy dramaturgiya rivojiga turtki bergan “Padarkush” pyesasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning ta’sirida jadidchilar ijodida 20 ga yaqin dramalarning yaratilganini ko‘rish mumkin, jumladan Nusratulloh Qudratulloning “To‘y”, “Javonmarg” (“Erta o‘lim”), Abdulla Badriyning “Ahmoq”, Abdullo Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot”, Xoja Muin Shukrulloning “Eski maktab, yangi maktab”, “Qozi va muallim”, “Mazluma xotin”, “Pinak”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik Osonmi”?, “Biz va siz”, Abdulhamid Cho‘lponning “Boy” va boshqa asarlari shular jumlasidandir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jadidlar teatr san’atini ommalashtirish maqsadida “Dastai sayyor” deb nomlangan ko‘chma teatrlar yaratdilar, 1913-yilda jadidlar tomonidan yaratilgan O‘rta Osiyodagi birinchi “Turon” teatr truppasi faoliyat boshladi. Mashhur sharqshunos olim A.N. Samoylovich 1916-yilda Toshkentning “Kolizeyi”da Avloniy truppasi ijrosidagi “Padarkush” spektaklini

---

[1] Танланган асарлар (Ибрат. Сиддиқий Ажзий. Сўфизода). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Б.Қосимов, С. Аҳммедов ва б. Тошкент, “Маънавият”, 1999, 138-bet (умумий 232 бет).

[2] Танланган асарлар (Ибрат. Сиддиқий Ажзий. Сўфизода). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Б.Қосимов, С. Аҳммедов ва б. Тошкент, “Маънавият”, 1999, 140-bet (умумий 232 бет).

ko‘rgan xalqning sahnada qanday kuchli taassurotga tushganligi haqida yozib qoldirgan.[1] Boshqa tomondan, jadidlarning teatrlashtirilgan tomoshalari ulamolarda alohida g‘azab uyg‘otdi, san’atkorlar ham, tomoshabinlar ham, ko‘pincha, sharmandali “makruh”, ya’ni. jirkanch, nopok deya tanqid qilindi.[2] Aslida, 1910–1917-yillarda dramaturgiya va teatr jadidchilik g‘oyalarini tarqatuvchi asosiy unsur vazifasini bajargan. Jadid teatrining ushbu olti yillik faoliyati davomida deyarli ijtimoiy hayotdagi muammolarni ko‘tarib chiqqan 25 ga yaqin pyesalar dunyo yuzini ko‘rdi. Ushbu asarlar jadidchilik qarashlarini yoyishga bo‘lgan cheklovlar, spektakllarining badiiy jihatdan mukammal emasligiga qaramay, o‘tkir ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lib, boylarning ochko‘zligini, mullalarning axloqsizligi va shaxsiy manfaatparastligini tanqid qilgan, mansabdorlarning pulga bo‘lgan hirsini, ular pul uchun har qanday jinoyatga tayyor ekanligini ayanchli shaklda ochib bergan. Ushbu pyesalarda eskicha to‘y marosimlari, eskirgan urf-odat va an’analar, jamiyatga singib ketgan xurofotlar, hukmron qatlamning ortida yashiringan illatlar keskin tanqid qilingan. Jadid dramaturglari insonning komillikka erishishida teartrning kuchiga ishonishgan, ular dramaturgiyada yagona mafkuraning o‘rnatilishini jamiyat tanazzulini oldini olishning yagona vositasi deb bilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Саламов Ш.Н. Ғоялар жанги. XIX–XX да Туркистон ва Жанубий Кавказ. Тошкент, “Истиқлол нури”, 2017, 72-bet (умумий 312 бет).

(2). Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. Ташкент, “Узбекистон”, 2009, с. 17 (umumiy 23 bet).

(3). Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре, Ташкент, 1926, с. 78; Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане. Ташкент, “Узбекистан”, 1979, 156 с.

(4). Шарипов И. Предпосылки преобразования общественных отношений в Таджикистане на пути некапиталистического развития. Ч.1, Душанбе, “Дониш”, 1973, с. 170; Абдуллин Я.Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция. Из истории татарской общественной мысли. Казань, 1979, с. 91–117; Он же. Буржуазно-демократическое движение рубежа XIX–XX веков и его идеологическое выражение–джадидизм. Общественная и философская мысль в Татарии начала XX века. М., “Наука”, 1990, с. 16–29; Хотамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деетельности. Душанбе, 2000, 58 бет; Бакиев М.И. История просветительного движения и свободомыслия в Средней Азии, конец XIX – начало XX века. Дисс. док.ист. наук, Душанбе, 2000, с. 282.

(5). Алимов Д. Жадидчилик феномени. Тошкент, “Академнашр”, 2022, 8-bet (умумий 272).

(6). Тошходжа Асирии Худжацдн. Апгьори мунтахаб (избранное). Мураттиб ва муаллифи сарсухану тавзехот Саъдулло Асадуллоев, Душанбе, “Адиб”, 1987, с. 24.

(7). Маҳмуд В. Турк шоири Ажзий. “Инқилоб”, 1924, 12-сон.

(8). Танланган асарлар (Ибрат. Сиддиқий Ажзий. Сўфизода). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Б. Қосимов, С.Аҳммедов ва б. Тошкент, “Маънавият”, 1999, 138-bet (умумий 232 бет).

(9). Танланган асарлар (Ибрат. Сиддиқий Ажзий. Сўфизода). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Б. Қосимов, С.Аҳммедов ва б. Тошкент, “Маънавият”, 1999, 140-бет (умумий 232 бет).

(10). Самойлович А. Драматическая литература сартов. Вестник Императорского Общества востоковедения. 1916, № 5, с. 72–84.

(11). Архив академика А.А.Семенова. Институт истории, археологии и этнографии АН Республики Таджикистан. ОП.1, Д.121, Л., 162.

Исаева Дилбар Абдукадировна (доцент Бухарского ИТИ, доктор философии по философским наукам наукам (PhD)

ДИАЛЕКТИЧЕСКИЙ МЕТОД В ИЗУЧЕНИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА: ОТ НЕГАТИВНОЙ ДИАЛЕКТИКИ К ЦИФРОВОЙ

Аннотация. *В данной статье проведён сравнительный анализ «негативной диалектики» Теодора Адорно и «цифровой диалектики» Питера Люненфельда. Статья предлагает обсуждение новых технологий, новых медиа, новых культурных форм и их диалектическое взаимодействие.*

Ключевые слова: *франкфуртская школа, негативная диалектика, цифровая диалектика, идентичность, неидентичность, киберлибертарианец, гуманизм.*

[1] Самойлович А. Драматическая литература сартов. Вестник Императорского общества востоковедения. 1916, № 5, с. 72–84.

[2] Архив академика А.А.Семенова. Институт истории, археологии и этнографии АН Республики Таджикистан. Ф. 2, ОП.1, Д.121, Л., с. 162.